

INKLYUZIV TA'LIMDA CHET TILINI O'QITISHDA GRAMMATIK QOIDALAR TAHLILI

Sharipova G.¹,*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tizimida chet tili grammatikasini o'qitish metodlari va yondashuvlarini tahlil qildik. Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun chet tili grammatikasini o'rganishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengib o'tish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, vizual va interaktiv metodlar, differensial yondashuv, kommunikativ usullar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, chet tili o'qitish, grammatika, interaktiv metodlar, differensial yondashuv, kommunikativ usullar, texnologiyalar, maxsus ta'lim ehtiyojlari.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim tizimi butun dunyoda keng rivojlanib, imkoniyati cheklangan yoki maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarga sifatli bilim berishni maqsad qiladi. Chet tilini o'qitishda esa grammatik qoidalarini o'rgatish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim doirasida chet tili grammatikasini samarali o'rgatish usullari va yondashuvlarini tahlil qilamiz.

Inklyuziv ta'limda va chet tili grammatikasi va inklyuziv ta'lim sharoitida har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Inklyuziv ta'limda chet tili grammatikasini o'rgatishda quyidagi asosiy muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- Eshitish yoki ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun ma'lumotni yetkazish qiyinligi.

- Disleksiya kabi o'qish va yozish bilan bog'liq qiyinchiliklar.

- Diqqatni jamlash yoki tushunish jarayoni sust kechadigan o'quvchilar uchun qo'shimcha tushuntirish ehtiyoji.

Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim. Chet tili grammatikasini o'qitishda samarali metodlar vizual va interaktiv usullar o'quvchilarga inklyuziv ta'lim berishda asosiy metodlar bo'lib hisoblanadi.

Vizual va interaktiv metodlar har qanday o'quvchi, ayniqsa eshitish yoki disleksiya muammolari bo'lgan talabalar va o'quvchilar uchun foydalidir. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda quyidagi usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ldi, masalan;

- infografika va diagrammalar – grammatik qoidalarini rangli va tushunarli grafikalar orqali tushuntirish.

- video va animatsiyalar – talaffuz va grammatik qoidalarini eshitish orqali yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

- mobil ilovalar va interaktiv platformalar – o'quvchilar o'zlari uchun qulay sur'atda grammatikani mustahkamlashlari mumkin.

- Differensial yondashuv;

Har bir o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqib, individual o'qitish metodikasini ishlab chiqish muhim sanaladi;

- eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun yozma materiallar va vizual resurslardan foydalanish.

- ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar uchun audio yozuvlar va Braille alifbosidagi materiallar tayyorlash.

- disleksiya bilan bog'liq muammolarni kamaytirish uchun shrift va matn oralig'iga e'tibor qaratish.

Kommunikativ yondashuv; bunda grammatikani amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish samaradorlikni oshiradi;

¹ Sharipova G., Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

- rol o'ynash mashqlari – grammatik tuzilmalardan real hayotiy vaziyatlarda foydalanish.
- dialog va suhbatlar – o'quvchilarning og'zaki muloqotga jalb qilinishi.
- jamoaviy topshiriqlar – o'zaro hamkorlik orqali grammatik qoidalarni o'zlashtirish.
- Inklyuziv ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturlar – individual ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'lim resurslari.

-interaktiv doskalar va ilovalar – ko'rish va eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish.

-onlayn platformalar (Duolingo, LingQ, BBC Learning English) – har bir o'quvchi o'ziga qulay bo'lgan formatda mashq qilishi mumkin.

Xulasa qilib aytadigan bo'lsak inklyuziv ta'limda chet tili grammatikasini o'rgatish samaradorligini oshirish uchun individual yondashuv, texnologiyalardan foydalanish va kommunikativ metodlarni joriy etish muhim. Har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish chet tilini o'rganishni yanada oson va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. ЮНЕСКО (2020). Инклюзив таълим: Таълимда тенгликни таъминлаш.
- [2]. Назаров А. (2021). Ўзбекистонда инклюзив таълимни ривожлантириш йўналишлари. Тошкент: Fan nashriyoti.
- [3]. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси (2022). Инклюзив таълимни ривожлантириш бўйича давлат дастури.
- [4]. Григорьева, И. (2019). Инклюзивное образование: теория и практика. Москва: Просвещение.
- [5]. Boltakulova, G. F. (2015). Means of Expressing and Analyzing Adverbial Modifier of Time in the Sentence Structure in English and Russian. In *Development of the Spoken and Written Language at the Current Stage of the Intensive Information Turnover* (pp. 11-12).
- [6]. Мардонова, С. (2024). Семантическое развитие глаголов "feorrian, fursian, feorsian" и глаголов направления, которые включаются в 4 категории древнеанглийского языка. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(5/S), 411-420. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp411-420>.
- [7]. Sharifovna, R. S. (2025). Theoretical Concepts On Improving Communicative Skills Of Higher Secondary School Pupils. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(03), 3-6.
- [8]. Ochilova G.U. The concept of "kinship" and its use in languages of different systems. *Eurasian Research Bulletin*, Volume 19, April, 2023.
- [9]. Karimova, S. V., & Köse, D. (2023). The use of case-study method in foreign language lessons. *Science and Education*, 4(6), 639-643.
- [10]. Mavlonova, N. (2023). Interlanguage Phraseological Correspondence of English-Russian-Uzbek Languages and Their Classification. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 1(4), 85-89.
- [11]. Болтакулова, Г. Ф. (2015). Способы выражения обстоятельства времени в английском и русском языках и его место в предложении. *Молодой ученый*, (14), 583-585.
- [12]. Abduvakhobova, U. (2025). pragmatic aspects of language in teaching english. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 6(01), 11-18.
- [13]. Rustamova, S. (2024, October). The perception of communicative language teaching method in education. In *international conference on interdisciplinary science* (Vol. 1, No. 10, pp. 259-263).
- [14]. Ismatova, M. (2024, May). Auditoriya Mashg 'Ulotlarida Kouching Texnologiyalaridan Foydalanish. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 331-342).
- [15]. Мавлонова, Н. (2024, May). Методы и принципы сопоставительной фразеологии. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 254-256).